

AVLONIY YODI DILLARDA MANGU

Sultanova Iftixor Baxtiyor qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Amaliy psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

iftixorsultanova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola buyuk bobomiz, yangi davr asoschilaridan biri, jadid, davlat arbobi Abdulla Avloniy haqida bo‘lib, uning yurtimiz ravnaqiga, yoshlar bilim olishiga qo‘sghan hissasi haqida. Avloniy doimo inson hayotida tarbiyani va axloqni ustun qo‘yadi. Bu haqidagi fikr va xulosalarini ham o‘z asarlarida, qilgan ezgu ishlarida guvohi bo‘lishimiz mumkin. Uning yoshlar, nafaqat yoshlar uchun butun bir millat uchun qilgan ishlaridan eng yirigi bu- o‘z hisobidan yangi tizimdagi dunyoviy maktab ochganligi, uni barcha o‘quv materiallari bilan o‘zi ta’minlaganligi, bolalarga yangi o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqqanligi bo‘lsa, kattalar uchun esa ilk gazetani nashr qilidirishi edi. Bular haqida keng axborotni pastdagi maqola orqali olamiz.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, jadidchilik, yangi maktab, gazeta, o‘quv qo‘llanmalar, hayriya jamiyati, tarbiya, odam, bilim.

ABSTRACT

This article is about our great grandfather, one of the founders of the new era, the late statesman Abdulla Avloni, and about his contribution to the development of our country and the education of young people. Avloni always prioritizes education and morality in human life. We can witness his thoughts and conclusions about this in his works and good deeds. The greatest thing he did for the youth, not only for the youth, but for the entire nation, was that he opened a secular school with a new system at his own expense, provided it with all educational materials, and developed new study guides for children. and for adults, it was to publish the first newspaper. We will get detailed information about them through the article below.

Key words: Abdulla Avloni, Jadidism, new school, newspaper, textbooks, charitable society, education, man, knowledge.

Abdulla Avloniy ushbu ismni eshitgan inson bor ekanki, buyuk ajdodimizni xotirlaydi. Avloniy o‘zbek milliy ma’daniyatining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shtigan vakil, ilk muallimlardan biri, shoir,dramaturg, jurnalist eng asosiysi davlatimiz va jamoat arbobi sifatida doim hayolimizda gavdalanadi. Bobomizning hayotiga nazar tashlar ekanmiz, Toshkent shahrining Mergancha nomli mahallasida, oddiy to‘quvchi oilasida dunyoga kelgan. Dastlabki ta’limni mahallada, keyinchalik shaharda olgan Avloniy o‘zining zehni, idroki va darslarni tez o‘zlashtira olish qobiliyati bilan tengdoshlaridan anchagina farq qilar edi. Uning bolaligi ana shu zaylda o‘tdi. Yigitlik davrlarida Rossiyaning turli shaharlarida chiqqan gazetalarni o‘qib ma’lumotini oshirib boradi. 1904-yildan jadidchilar guruhiga qo‘shiladi va yangi tuzumdagi maktab olib o‘qituvchilik qila boshlaydi. Albatta bu maktablarni chor Rossiya davrida ochish oson ish emas edi. Hukumat tomonidan qo‘yilgan ta’qiqlar, ayrim yangicha fikrlarni ma’qullamaydigan shaxslarning to‘sinqinliklariga qarshi ajdodimiz doim kurashda bo‘lgan. Avloniy o‘zi ochgan maktabiga darsliklarni ham shaxsan o‘zi yaratadi va shu darsliklar asosida o‘quvchilarga dars beradi. Oradan biroz vaqt o‘tgach “Shuxrat” nomli gazeta Avloniy boshchiligidagi nashr qilinadi. Bir necha soni chiqqach eski hukumat hodimlari adibning uyini, idorasini tintuv qilishib, kitoblar va darsliklarini musodara qilishadi. Yoshlari ta’lim-tarbiyasini yuksaltirishga hissa qo‘sheyotgan gazetani esa nashr qilinmasligiga buyuruq chiqartirishadi. Millatimiz arbobini tilga olar ekanmiz uning yana bir e’tiborga loyiq bo‘lgan ishini ham aytib o‘tish joiz. 1909-yilda o‘zi qonun tuzib “Jamiyat Hayriya” ochadi. Ushbu jamiyatning asosiy vazifalaridan biri shu o‘lkada tashkil etilayotgan maktablarni, unda tahsil olayotgan va ta’lim berayotgan shaxslarga ham moddiy ham ma’naviy yordam berish edi. Buyuk ajdodimizning o‘zidan keyingi avlodlariga qilgan barcha ezgu ishlarini sanab adog‘iga yeta olmaymiz. Avloniy yoshlar tarbiyasida odob-axloqqa, ma’naviyatga alohida e’tibor bergan. Jumladan uning” Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim.” so‘zları o‘z ahamiyatini yillar davomida ham yo‘qotmasa kerak. Shubxasiz biz farzandlarimizga bergen ilmimiz bilan chegaralanib qolmasdan, bilim

bilan namunali tarbiya ham berishimiz lozim. Tarbiya va axloq insonning ko‘rki, husnifazilat sanaladi. Tarbiyali kishilar bizning ko‘zimizga barcha insonlar ichidan o‘zgacha, nurli ko‘rinadi. Ularning tarbiyasi ilm bilan mustahkamlansa nur ustiga a’lo nурdir. Inson bu yorug‘ dunyoga kelar ekan, avvalo ilk tarbiya va hayot ta’limini ota-onasidan oladi. Shu olgan ilk tarbiyasi hayoti davomida o‘zlashtiradigan xulqiga asos bo‘ladi. Bobomizning purma’no so‘zlarida ana shu hikmat yashiringandir. Biz va bizdan keying yoshlar, o‘z ajdodlarimizga ularning ta’limini, tarbiyasini va qilgan ishlarini o‘rnak qilib olgan davomchilar sifatida ularga munosib avlod bo‘layik. Albatta buning uchun o‘qishimiz, tinmay izlanishda bo‘lishimiz, bizni milliy qadriyatimizga yet bo‘lgan narsalardan o‘zimizni jilovlay olishimiz darkor. Bularning barchasini uddalashimiz oson bo‘lmaydi biroq mening ishonchim komilki biz yoshlar albatta bu yo‘lda muvaffaqiyatga erishamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Dolimov U. “Abdulla Avloniy milliy uyg'onish davri o‘zbek pedagogikasini asoschisi.”
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”